

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI IJTIMOYIY-
MA’NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) huzurida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Belgilansinki, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti (keyingi o‘rinlarda — Institut) “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan g‘oya asosida mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, aholi, ayniqsa, yoshlarni Vatanga muhabbat, ma’naviy merosimiz, milliy adabiyotimizga hurmat ruhida tarbiyalash g‘oyasini hayotga tatbiq etish ishlarini ilmiy-metodik va axborot-tahliliy jihatdan ta’minlash faoliyatini amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

2. Quyidagilar Institutning asosiy vazifalari etib belgilansin:

ma’naviy-ma’rifiy ishlar holati, milliy g‘oyaning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni, jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi tahdidlar va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish;

mamlakatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini tadqiq qilish, baholash va yaxshilash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar tayyorlash;

ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirishning samarali va ta’sirchan zamonaviy targ‘ibot texnologiya hamda usullarini ishlab chiqish;

aholining g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish, Internet tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish;

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi asosida tarbiyaviy ishlar samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan indikatorlari va ko‘rsatkichlarini joriy qilish;

vazirliklar va idoralarda, jumladan, ta’lim tizimi, mahalla va hududlar bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

sohani ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish, ularning natijalarini amaliyotga tatbiq qilish, ilmiy ekspertizani yo‘lga qo‘yish;

dunyoning mafkuraviy manzarasini o‘rganish, tahlil qilish, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mos xorijiy tajribani amaliyotga joriy etish;

ma’naviy-ma’rifiy sohaga mas’ul xodimlarning malakasini oshirish.

3. Belgilansinki:

Institut direktori Markaz rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi;

Institut xodimlariga Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari qo‘llaniladi;

Institut “Ma’naviyat targ‘ibotchisi” ta’lim muassasasining barcha huquq va majburiyatlari, shuningdek, tuzilgan shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

4. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining tuzilmasi [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Markaz rahbariga, zarur hollarda, Institut tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

5. Quyidagilar Institut faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

Davlat budjetidan ajratiladigan tegishli mablag'lar;

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida o'tkaziladigan tanlovlar natijalariga ko'ra ajratiladigan Davlat budjeti mablag'lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari va boshqa xorijiy tashkilotlarning grantlari;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

6. Belgilab qo'yilsinki, Institutni budjet mablag'lari hisobidan saqlash xarajatlari 2021-yilda Markazning Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasidan Markazning hududiy bo'limlariga joylarda ma'naviy-ma'rifiy sohalarni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lari hisobidan qoplanadi, 2022-yildan boshlab esa respublika budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

7. Markaz va "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasining ushbu ta'lim muassasasiga tegishli bo'lgan mol-mulkni, shu jumladan, transport vositasini belgilangan tartibda Institutga beg'araz berish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

8. Markaz:

a) ikki oy muddatda:

Institut ustavini ishlab chiqsin, tasdiqlasin va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin;

Institutni yuqori ilmiy salohiyatli, malakali mutaxassislar bilan to'ldirish choralari ko'rsin; davlat organlari va tashkilotlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul xodimlarining to'lov shartnomasi asosida Institutda malakasini oshirish tartibini joriy etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin;

b) uch oy muddatda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi bilan birgalikda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Institutda tegishli yo'nalish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash faoliyatini tashkil etsin.

9. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi belgilangan tartibda Institutni zarur telekommunikatsiya xizmatlari bilan, jumladan, hukumat aloqasi hamda Internet tarmog'iga ulanishini ta'minlasin.

10. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Toshkent shahar hokimligining Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy manzilidagi Xalq ta'limi vazirligiga tegishli bo'lgan binoning 3-qavatiga Markaz huzuridagi Institut, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati, "Ma'naviy hayot" va "Tafakkur" jurnallari tahririyatlarini tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hokimligi obyektini bir oy muddatda belgilangan tartibda topshirsin, Markaz qabul qilib olsin hamda obyektini Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan mukammal ta'mirlash, saqlash va undan maqsadli foydalanish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rsin.


11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari B.A. Musayev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2021-yil 3-iyun,
340-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 340-son qaroriga
ILOVA

**Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
institutining
TUZILMASI**



Xodimlarning umumiy cheklangan soni — 20 nafar

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/340/0517-son)